

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

## ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

### REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 2-son

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



**Crossref**  
Content  
Registration

# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR  
TARIXI

- 6 **KARAHOДЖАЕВА ДИЛОРОМ  
МАМИРОВНА**  
А.И. Ишанов – выдающийся узбекский  
ученый-государствовед

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 13 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ**  
Конституционализм и наука конституционного  
права: некоторые задачи и перспективы  
развития
- 24 **YULDOSHBEKOV AVAZBEK  
ALISHER O'G'LI**  
**QODIROVA DILDORA IRKINOVNA**  
Xorijiy investitsiya tushunchasining  
nazariy-huquqiy jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI.  
OILA HUQUQI.  
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 30 **XODJAYEV BAXSHILLO KAMOLOVICH**  
Intellectual mulk huquqini boshqarish va  
texnologiyalar transferini davlat tomonidan  
qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy  
masalalari
- 38 **XO'JAYEV SHOXJAXON AKMALJON O'G'LI**  
Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya  
qilishning o'ziga xos jihatlari
- 49 **SAYDIVALIYEVA XURSHIDA  
XODJIAKBAROVNA**  
Xorijiy davlatlarda oilaviy munosabatlarni  
tartibga solishning o'ziga xos jihatlari va  
oilaviy-huquqiy shartnomalar

61 **МУРОДЖОНОВА МОХИРАХОН  
МАКСУДЖОН КИЗИ**

**ИМАМОВА ДИЛФУЗА ИСМАИЛОВНА**

Понятие международного договора  
строительного подряда

70 **USMONOVA MUNISXON YO‘LDOSH QIZI**

Muomala layoqatidagi nuqsonlar va uni  
aniqlashdagi muammolar

81 **ASADOV SHAHRIDDIN FAKHRIDDIN UGLI**

Legal regulation of consulting services

12.00.06 – TABIIY RESURLAR  
HUQUQI.

AGRAR HUQUQ.

EKOLOGIK HUQUQ

90 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**

O‘zbekistonda vodorod energetikasi sohasi  
qonunchiligini takomillashtirishning ayrim  
masalalari

97 **ХАЙИТОВ ПАНЖИ БУХАРОВИЧ**

Роль и значение объектов и субъектов  
в энергетической безопасности

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.  
HUQUQBUZARLIKLARNING

OLDINI OLISH.

KRIMINOLOGIYA.

JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

106 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**

Janubiy Afrika Respublikasi jinoyat  
qonunchiligida jazoni yengillashtirish instituti

12.00.09 – JINOYAT  
PROTSESSI. KRIMINALISTIKA,

TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA

SUD EKSPERTIZASI

122 **UMARXONOV AZIZXON  
SHARIPXONOVICH**

Sud bosqichlarida jinoyat protsessi  
ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash  
asoslari

- 131 **ABDULLAYEV DIYOR IBODILLAYEVICH**  
Uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi tanlangan  
shaxsga nisbatan o'rnatilishi mumkin bo'lgan  
taqiq (cheklov)larning ilmiy-nazariy jihatlari
- 

## 12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 142 **ВАЛЕЕВ АРТУР МАХМУДОВИЧ**  
Правовые инструменты защиты  
иностранных инвестиций в соответствии  
с положениями двухстороннего  
инвестиционного договора: опыт  
Республики Узбекистан
-

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.2./IMHR6335>  
UDC: 343.233/.235(045)(575.1)

## JANUBIY AFRIKA RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA JAZONI YENGILLASHTIRISH INSTITUTI

**Islomov Bunyod Ochilovich,**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
mustaqil izlanuvchisi,

“KDB Bank O'zbekiston” AJ bosh yuriskonsulti

ORCID: 0000-0001-8827-4900

e-mail: bunyodislomov@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Janubiy Afrika Respublikasi jinoyat qonun hujjatlarida o'z aksini topgan jazoni yengillashtirish instituti, shu jumladan, voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari, tamom bo'lmagan jinoyatlarning suiqasd bosqichida va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash, faktdan keyingi ishtirokchilik, yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligiga doir ayrim masalalar, aqli norasolik va cheklangan aqli rasolik holatida sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash, shartli hukm qilish, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazo tayinlashda yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga olishga doir sud amaliyoti, afv etish va amnistiya masalalari, ayrim og'ir jinoyatlar uchun sud ixtiyoriga ko'ra tayinlanadigan jazo choralari eng kam muddati yoki miqdorining belgilanishi, yengilroq jazo tayinlash tartibi, aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilganda jazo tayinlash, Xalqaro jinoyat sudi to'g'risidagi Rim statuti hamda mamlakat jinoyat-protsessual qonunining jinoiy jazoni yengillashtirishda tutgan o'rnini hamda mazkur jinoyat protsessida prokurorning ishtiroki tahlil qilinib, yakuniy fikr sifatida Janubiy Afrika Respublikasining ayrim jinoyat-huquqiy me'yorlarini O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga tatbiq qilishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yengillashtiruvchi holatlar, og'irlashtiruvchi holatlar, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar, jinoyatda ishtirokchilik, jinoyatga suiqasd qilish, cheklangan aqli rasolik, voyaga yetmagan shaxs, shartli hukm, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, afv etish, amnistiya, aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv, kompaniya.

## ИНСТИТУТ СМЯГЧЕНИЯ НАКАЗАНИЯ В УГОЛОВНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ ЮЖНО-АФРИКАНСКОЙ РЕСПУБЛИКИ

**Исломов Бунёд Очилович,**

самостоятельный соискатель Университета

общественной безопасности Республики Узбекистан,

главный юрисконсульт АО «КДБ Банк Узбекистан»

**Аннотация.** В данной статье проведен анализ института смягчения наказания в уголовном законодательстве Южно-Африканской Республики, в том числе рассмотрены особенности уголовной ответственности несовершеннолетних, назначение наказания за неоконченные преступления, совершенные в стадии покушения и преступления, совершенные в соучастии, а также постфактум соучастие, некоторые вопросы уголовной ответственности юридических лиц, назначение наказания за преступления, совершенные в состоянии

невменяемости и ограниченной вменяемости, условное осуждение, условно-досрочное освобождение от отбывания наказания, судебная практика назначения наказания с учетом смягчающих и отягчающих обстоятельств, вопросы помилования и амнистии, определение минимального срока или размера наказания, назначаемого по усмотрению суда за отдельные тяжкие преступления, порядок назначения более мягкого наказания, назначение наказания при заключении соглашения о признании вины, роль Римского статута Международного уголовного суда и Уголовно-процессуального закона страны в смягчении уголовного наказания, а также участие прокурора в данном уголовном процессе. В качестве итогового заключения разработаны предложения по имплементации некоторых уголовно-правовых норм Южно-Африканской Республики в Уголовный кодекс Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** смягчающие обстоятельства, отягчающие обстоятельства, обстоятельства, исключающие преступность деяния, соучастие в преступлении, покушение на преступление, ограниченная вменяемость, несовершеннолетнее лицо, условное осуждение, условно-досрочное освобождение от отбывания наказания, помилование, амнистия, соглашение о признании вины, компания.

## INSTITUTION OF MITIGATION OF PUNISHMENT IN THE CRIMINAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF SOUTH AFRICA

**Islomov Bunyod Ochilovich,**

Independent Researcher of the University  
of Public Safety of the Republic of Uzbekistan,  
Senior Legal Adviser of "KDB Bank Uzbekistan" JSC

**Abstract.** This paper analyzes the institution of mitigation of punishment in the criminal legislation of the Republic of South Africa, including the features of criminal liability of minors, sentencing for inchoated offences committed at the stage of attempt and offences committed in complicity, as well as accessory after the fact, some issues of criminal liability of legal persons, sentencing for offences committed in a state of insanity and diminished responsibility, probation, parole, judicial practice of sentencing, taking into account mitigating and aggravating factors, issues of pardon and amnesty, determining the minimum term or amount of punishment imposed at the discretion of the court for certain grave crimes, the procedure for more lenient sentencing, sentencing in a plea agreement, the role of the Rome Statute of the International Criminal Court and the Criminal Procedure Law of the country in mitigating of criminal punishment, as well as the participation of the prosecutor in this criminal process, and as a final conclusion, provides proposals on the implementation of some of criminal law norms of the Republic of South Africa to the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** mitigating factors, aggravating factors, criminal defenses, criminal complicity, attempted offence, diminished responsibility, minor, probation, parole, pardon, amnesty, plea agreement, company.

### Kirish

Janubiy Afrika Respublikasining (keyingi o'rinlarda – JAR) jinoyat huquqi ingliz konsepsiyalari ta'siriga uchraganligi bois Angliya va Avstraliyaning ayrim shtatlari singari jahondagi jinoyat qonunchiligini kodifikatsiya qilmagan kam sonli mamlakatlardan biri sanaladi. Afrika Millatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida mavjud bo'lgan "yengillashti-

ruvchi holatlar doktrinasi"ning JAR jinoyat qonunchiligiga o'tkazgan ta'sirini ham unutmaslik lozim [1, 223-b.]. Jinoyat huquqining umumiy va maxsus qismiga doir me'yorlar "Milliy atrof-muhitni boshqarish to'g'risida"gi [2], "Jinoyat qonuni (jinsiy jinoyatlar va bunga aloqador masalalar) ga o'zgartish kiritish to'g'risida"gi [3], "Kompaniyalar to'g'risida"gi [4], "Sug'urtalash to'g'risida"-

gi [5], “Moliyaviy sektorni tartibga solish to’g’risida”gi [6], “Soliq ma’muriyatchiligi to’g’risida”gi [7], “Odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish to’g’risida”gi [8], “Uyushgan jinoyatchilikning oldini olish to’g’risida”gi [9], “Moliyaviy razvedka markazi to’g’risida”gi [10], “Tenglikni targ’ib qilish va nohaq kamsitishning oldini olish to’g’risida”gi [11], “Korrupsiyaviy faoliyatning oldini olish va unga qarshi kurashish to’g’risida”gi [12], “Dekriminalizatsiya qilish to’g’risida”gi [13], “Giyohvandlik vositalari va giyohvandlik vositalarining muomalasi to’g’risida”gi [14], “Ommaviy zo’rluk va qo’rqitishning oldini olish to’g’risida”gi [15], “Konstitutsiyaviy demokratiyani terrorizm va u bilan bog’liq faoliyatdan himoya qilish to’g’risida”gi [16], “Probatsiya xizmatlari to’g’risida”gi [17], “Bolalar yustitsiyasi to’g’risida”gi [18], Jinoyat-protsessual qonuni [19], “Xalqaro jinoyat sudi to’g’risidagi Rim statutini tatbiq qilish to’g’risida”gi [20], “Magistratlik sudlari to’g’risida”gi [21], “Oliy sud to’g’risida”gi [22] va boshqa ko’plab qonunlarda o’z aksini topgan.

Ayni paytda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-son Farmoniga 1-ilovada belgilangan 14-maqsadni amalga oshirish uchun jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish ko’zda tutilib, bu, o’z navbatida, mamlakatimizda boshlangan islohotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. 2017–2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasining 2.3-bandiga muvofiq (O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son qaroriga 1-ilova), ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo’jalik qonunchiligini takomillashtirish hamda O’zbekiston Respub-

likasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3723-son Farmoni ijrosi yuzasidan Jinoyat kodeksining yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish bo’yicha ishlar olib borilayotganligi bois bu borada xorijiy tajribani o’rganish har qachongidan ham dolzarb sanaladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi bevosita Janubiy Afrika Respublikasi jinoyat qonunchiligida jazoni yengillashtirish institutini o’rganib chiqish natijalari yuzasidan milliy jinoyat qonunini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish hamda O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Jinoyat kodeksining yangi tahririni ishlab chiqish komissiyasiga taqdim etishdan iborat.

### Material va metodlar

Shu kunga qadar jazoni yengillashtirish instituti yaxlit institut sifatida yetakchi milliy olimlar M. Rustamboyev [23, b.85-151], M. Usmonaliyev, P. Bakunov [24], E. Tojiyev [25], M. Nazarov [26, 27] tomonidan, mazkur institutning alohida jihatlari esa A. Otajonov, D. Kushbakov [28], D. Kamalova [29], T. Mavlonov [30], Sh. Gofurov [31], E. Turgunboyev [32], K. Xakimov [33], A. Kurbanova [34], M. Mukimova, G. Shermatova [35], M. Nodirov [36], Z. Turabayeva [37], S. Ochilov [38], A. Mamajonov [39], U. Zakirova [40, 41], Z. Shamshiddinov [42], D. Sharipova [43], K. Aliyev [44], G. Yusupdjanova [45] va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Biroq yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarni o’rganish davomida ushbu maqolada ko’rib chiqilayotgan masalalar asosan milliy olimlar va MDH doirasidagi olimlarning ishlariga havola qilgan holda tahlil qilinganligi, xorijiy mamlakatlar tajribasi esa har doim ham yetarlicha o’rganilmaganligi aniqlanib, bu yana bir bor mazkur maqolaning dolzarbligini tasdiqlaydi, deb hisoblaymiz.

Tadqiqot doirasida tarixiy, qiyo-  
siy-huquqiy, mantiqiy (analiz va sintez) hamda ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish-

dan iborat umumilmiy metodlardan foydalanilgan.

### **Tadqiqot natijalari**

Shu asnoda JAR jinoyat qonunchiligida yengillashtiruvchi holatlar tushunchasi va ularning qat'iy ro'yxati uchramasa-da, jazoni yengillashtirish masalalari bir qator qonun hujjatlarida tilga olinadi.

Birinchidan, "Jinoyat qonuni (jinsiy jinoyatlar va bunga aloqador masalalar)ga o'zgartish kiritish to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, bola deganda o'n sakkiz yoshga to'lmagan yoki ushbu qonunning 15- va 16-moddalariga nisbatan o'n ikki yoshga to'lgan va undan katta bo'lgan, biroq o'n olti yoshga to'lmagan shaxs tushuniladi.

Mazkur qonunning 55-moddasiga ko'ra, jinsiy jinoyatni sodir etishga suiqasd qilgan, boshqa bir shaxs bilan til biriktirgan, yordam bergan, dalolat qilgan, undagan, ko'rsatma bergan, buyruq bergan, maslahat bergan yoki boshqa bir shaxsning jinsiy jinoyat sodir etishini ta'minlagan har qanday shaxs ushbu qonunda belgilangan jinsiy jinoyatni sodir etganlikda aybdor deb topilib, tamom bo'lgan jinoyatni sodir etgan, ya'ni bunday jinoyatning bajaruvchisi bilan bir xil jazoga tortilishi mumkin. Bunda tamom bo'lmagan jinoyat yoki ishtirokchilik uchun jazoni yengillashtirish tartibi nazarda tutilmaganligiga guvoh bo'lamiz.

Jabrlanuvchi aybdor ustidan rahbarlik qilgan yoki ularning o'rtasida ishonchga asoslangan munosabatlar mavjud bo'lgan taqdirda ushbu qonunning o'n ikkinchi bobida qayd etilgan jinoyat (ing. "incest")ni sodir etgan va o'n sakkiz yoshga to'lmagan aybdor jinoiy javobgarlikka tortilmaydi (56(4)-modda).

Qiziq tarafi shundaki, sud aybdorga mazkur qonunda qayd etilgan jinsiy jinoyatni sodir etganligi uchun jazo tayinlashda og'irlashtiruvchi holatlar (aybdorning jinoyatni biron-bir moliyaviy manfaat yoki boshqa imtiyozlarni qo'lga kiritish niyatida sodir etganligi; ushbu jinoyatni sodir etish oqibatida aybdorning biron-bir manfaat yoki imtiyozni

qo'lga kiritganligi)ni inobatga olishi nazarda tutilgan bo'lsa-da, yengillashtiruvchi holatlar tilga olinmaydi, ikkita og'irlashtiruvchi holatni qamrab olgan ro'yxat esa yakuniy hisoblanib, sudya boshqa holatlarni og'irlashtiruvchi (ing. "aggravating factor") sifatida inobatga olishi mumkin bo'lmaydi (56(7)-modda).

Ikkinchidan, xuddi yuqorida qayd etilgan qonunda belgilangan suiqasd va ishtirokchilik uchun jazoning yengillashtirilmasligi va bajaruvchi bilan bir xil jazoga tortilishi hamda jazo tayinlashda hisobga olinadigan og'irlashtiruvchi holatlar ro'yxati, bu borada inobatga olinadigan yengillashtiruvchi holatlar ro'yxatining mavjud emasligiga doir me'yorlarni "Odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning 10- va 14-moddalarida ham ko'rish mumkin. Faqat e'tiborli jihati shundaki, jami o'n ikkita og'irlashtiruvchi holatni o'z ichiga olgan ro'yxat yakuniy hisoblanmaydi, demak, sudya boshqa holatlarni ham og'irlashtiruvchi deb topishi mumkin.

Uchinchidan, "Kompaniyalar to'g'risida"gi Qonunning 175-moddasiga ko'ra, kompaniyalarga nisbatan ma'muriy jarima qo'llash paytida bir qator omillar (huquqbuzarlikning xususiyati, davomiyligi, og'irligi va darajasi; huquqbuzarlik oqibatida yetkazilgan har qanday ziyon yoki zarar; kompaniyaning xulq-atvori; huquqbuzarlik sodir etilgan paytdagi bozor munosabatlari; huquqbuzarlik natijasida olingan daromad; huquqbuzarning komissiyaga huquqbuzarlik yuzasidan ma'lumot berish darajasi) inobatga olinishi belgilangan bo'lsa-da, ularga nisbatan jinoiy javobgarlik choralari qo'llashga doir qismida (213–217-moddalar) na yengillashtiruvchi, na og'irlashtiruvchi holatlar, shuningdek, jazoni yengillashtirish masalalari yuzasidan ham biron-bir qoida belgilanmasdan, faqatgina jinoyat tarkiblarining turlari va jazo choralari ro'yxati o'z ifodasini topgan.

To'rtinchidan, "Uyushgan jinoyatchilikning oldini olish to'g'risida"gi Qonunning

2(1)-moddasida qayd etilgan (reket faoliyati bilan bog'liq) jinoyatlarni sodir etganlik uchun 1 milliard randgacha bo'lgan miqdorda jarima yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan bo'lsa-da, ayblanuvchining o'z aybini bo'yniga olganligi (a plea of guilty) yoki aybsiz ekanini bo'yniga olganligiga (a plea of not guilty) qaramasdan tuman sudi ayblanuvchiga jazo tayinlagan, biroq hukm chiqarilgunga qadar ayblanuvchi mazkur tuman sudi vakolati doirasiga kirmaydigan 100 million rand miqdoridan ortiq bo'lmagan jarima yoki o'ttiz yil muddatdan oshmaydigan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoga loyiq deb topgan taqdirda tuman sudi o'z vakolat doirasidan chetga chiqadigan bunday jazoni tayinlashga haqli sanaladi. Biroq tuman sudi ayblanuvchini 100 million randdan ortiq miqdordagi jarimaga yoki o'ttiz yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoga loyiq hisoblagan taqdirda sud muhokamasini to'xtatishi hamda ishni zarur vakolatlarga ega Oliy sudga oshirishi lozim.

Mazkur qonunning 3-moddasida mustahkamlangan yuqoridagi qoida shuni anglatadiki, shaxsning o'z aybini bo'yniga olishi nafaqat yengillashtiruvchi holat deb topilmasligi, balki, aksincha, sudning ixtiyoriga ko'ra jazoning og'irlashtirilishidan ham asrab qolmasligi mumkin. Boshqa bir shaxsga g'ayriqonuniy faoliyatdan daromad olishga ko'maklashgan har qanday shaxs ham xuddi shu jinoyatni sodir etganlikda aybdor hisoblanadi (5-modda).

O'z navbatida, ushbu qonunning 9-moddasida nazarda tutilgan jinoiy guruh faoliyati bilan bog'liq jinoyatlar uchun jazo tayinlashda ham sud ikkita holatni (jinoyatning davlat maktabi yoki xususiy maktab binosi yoxud hududida yoki ulardan besh yuz metr doirasida dars vaqtida yoxud obyektidan voyaga yetmaganlar foydalanayotgan paytda sodir etilishi; shaxs sud tomonidan boshqa bir jinoyati uchun aybdor deb topilganidan so'ng

aybdorning jinoyat sodir etish paytida jinoiy guruh a'zosi bo'lganligi holati aniqlanishi) og'irlashtiruvchi holat sifatida topishi mumkin ekanligi mustahkamlangan (9-10-moddalar). Shaxs ushbu bobning maqsadlari uchun jinoiy guruh a'zosi ekanligini aniqlash maqsadida sud tomonidan bir qator holatlar (o'zining jinoiy guruh a'zosi ekanligini tan olishi, fotografiya va boshqa ashyoviy dalillar vositasida jinoiy guruh a'zosi ekanligi tasdiqlanishi va b.) inobatga olinishi belgilangan bo'lsa-da, mazkur holatlar yengillashtiruvchi holat vazifasini bajarishi xususida biron-bir me'yor ko'zda tutilmagan (11-modda).

Beshinchidan, "Tenglikni targ'ib qilish va nohaq kamsitishning oldini olish to'g'risida"gi Qonunning 28-moddasiga ko'ra, sud tergov davomida irq, jins yoki nogironlik belgisiga ko'ra nohaq kamsitishning jinoyat sodir etishda rol o'ynaganligi aniqlangan taqdirda mazkur holat og'irlashtiruvchi holat sifatida jazo tayinlashda e'tiborga olinadi.

Shuningdek, mazkur qonunning 14-moddasiga binoan, aybdorning o'zi tomonidan amalga oshirilgan kamsitish haqli (adolatli) bo'lganini isbotlay olganini aniqlash uchun e'tiborga olinishi lozim bo'lgan holatlar (kamsitish inson qadr-qimmatiga ziyon yetkazgani yoki yetkazishi mumkinligi; kamsitishning tizimli xususiyatga ega ekanligi) ro'yxati ko'rsatilgan bo'lsa-da, mazkur holatlarning yengillashtiruvchi holat vazifasini bajarishi to'g'risida so'z ketmasdan, ushbu holatlar faqatgina aybdorning o'z harakatlarning asosli ekanligini isbotlashida rol o'ynaydi.

Oltinchidan, "Korrupsiyaviy faoliyatning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasiga muvofiq, jinoyat sodir etishga suiqasd qilgan, boshqa bir shaxs bilan til birlashtirgan, yordam bergan, dalolat qilgan, undagan, ko'rsatma bergan, buyruq bergan, maslahat bergan har qanday shaxs ushbu qonunda belgilangan jinoyatni sodir etganlikda aybdor deb topiladi hamda tamom bo'lgan jinoyatni sodir etgan, ya'ni

bunday jinoyatning bajaruvchisi bilan bir xil jazoga tortilishi mumkin.

Yettinchidan, “Bolalar yustitsiyasi to’g’risida”gi Qonun yuvenal yustitsiyaning asosini tashkil etadi. Uning 62-moddasida voyaga yetmagan jinoyatchi va jabrlanuvchi o’rtasida ikkala tarafning roziligi asosida mediatsiya jarayonini amalga oshirish va voyaga yetmagan shaxs tomonidan yetkazilgan zararni bartaraf etish rejasini ishlab chiqish tartibi ko’zda tutilgan.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo’yicha sudlar mazkur qonun asosida hukm chiqaradilar. Ushbu sud qayd etilgan qonunning 77-moddasi tartibida ozodlikdan mahrum qilish yuzasidan hukm chiqarayotganda quyidagi omillarni inobatga olishi lozim:

a) jinoyat oqibatida yetkazilgan yoki yetkazilish xavfi yuzaga kelgan zararning miqdori va bunda bolaning aybini tegishli hisobga olgan holda jinoyatning og’irligi;

b) hamjamiyatning himoyasi;

d) jabrlanuvchi uchun jinoyat oqibatlari-ning og’irligi;

e) qo’llash mumkin bo’lgan taqdirda bolaning hayot kechirish bilan bog’liq bo’lmagan muqobil variantlarga tegishli munosabat bildirish imkoniyatining avvaldan mavjud emasligi;

f) bolaning qamoqxonaga tushmasligining maqsadga muvofiqligi.

Qizig’i, jinoyat ishlari bo’yicha sud jarayoniga jalb etiladigan ijtimoiy xizmatlar xodimlaridan chuqur huquqiy bilimga ega bo’lish, shuningdek, og’irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar, jazo tayinlashning prinsiplari hamda jazo turlaridan xabardor bo’lish talab qilingani holda mazkur bilim sudga samarali qaror qabul qilishi uchun yordam ko’rsatishda birlamchi ahamiyat kasb etadi [46, 14-b.].

Sakkizinchidan, Jinoyat-protsessual qonunning 1(1)-moddasidayoq bosqinchilik yoki bosqinchilik jinoyatiga suiqasd sodir etilgan taqdirda og’irlashtiruvchi holatlar sifatida jinoyatchi yoki uning sherigi tomonidan mazkur jinoyat sodir etilishidan avval,

sodir etish vaqtida yoki sodir etilganidan so’ng o’qotar qurol yoki boshqa har qanday qurolga egalik qilish, og’ir tan jarohatlarining yetkazilishi yoki bunday jarohat yetkazish bilan qo’rqitish tan olinishi bayon qilinsa-da, ushbu qonun matnida mazkur paragrafda tadqiq etilayotgan boshqa qonun hujjatlari kabi yengillashtiruvchi holatlar atamasi umuman qo’llanmaydi. Biroq jazoni yengillashtirishning quyidagi ayrim asoslari tilga olinadi.

1. Mazkur qonunning 57–57A moddalarida o’z aybini bo’yniga olish to’g’risida arz qilish (admission of guilt) hamda jarimaning to’lovini sudgacha yoki sud jarayonida amalga oshirish tartibi o’z ifodasini topgan.

2. Sud ayblanuvchining qilmishni sodir etgan vaqtda ruhiy kasal yoki aqli noraso holatda bo’lganini aniqlagan taqdirda ayblanuvchi jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Biroq jinoyat sodir etilayotgan paytda ayblanuvchining o’z qilmishi g’ayriqonuniyligiga baho bera olish va shunga muvofiq harakatlanish imkoniyati pasaygani aniqlangan taqdirda mazkur holat sud tomonidan jazo tayinlash vaqtida inobatga olinadi (78(6), (7)-modda). Fikrimizcha, ushbu qoidada qonun chiqaruvchi jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholanishi mumkin bo’lgan cheklangan aqli rasolik haqida so’z yuritmoqda.

3. Ushbu qonunning 105A moddasiga ko’ra, prokuror va ayblanuvchi yoki uning qonuniy vakili o’rtasida yozma shaklda aybga iqrorlik to’g’risida kelishuv (plea agreement), shuningdek, sud bosqichida hukmni tan olish to’g’risida kelishuv (sentence agreement) tuzilishi mumkin. Bunda prokuror dastlab jinoyatning xususiyati bilan bog’liq holatlarni, ayblanuvchining shaxsiga doir holatlarni va avvalgi sudlanganlik holatlarini (agar mavjud bo’lsa) hamda jamiyat manfaatlarini inobatga oladi.

So’ngra sud ayblanuvchi tomonidan ayblovda aks etgan ko’rsatmalar tan olinishi va ayblanuvchi bundan avval tuzgan tegishli kelishuvga doir jinoyatni sodir etishda aybdor ekanligiga ishonch hosil qilganidan

so'ng hukm yuzasidan kelishuvni ko'rib chiqishga kirishadi va bu borada qayd etilgan jinoyat uchun eng kam miqdordagi jazo turini nazarda tutgan tegishli qonun me'yorini hisobga oladi (105(7) (a) modda).

4. Ushbu qonunning 256-moddasiga muvofiq, jinoyat protsessidagi dalillar ayblanuvchi tomonidan jinoyat sodir etilganini isbotlamagan, ammo mazkur jinoyat sodir etishga qaratilgan harakati yoki suiqasdni isbotlagan taqdirda ayblanuvchi mazkur jinoyatni sodir etishga suiqasd (attempt) qilganlikda aybdor deb topilishi mumkin.

5. Ko'rib chiqilayotgan qonunning 257-moddasi faktdan keyingi ishtirokchilik (accessory after the fact) uchun javobgarlik belgilaydi. Bunda jinoyat protsessidagi dalillar yordamida aybdorning jinoyat sodir etilganidan so'ng ishtirokchiga aylangani isbotlangan taqdirda, agarda ushbu qilmish uchun qonunda to'g'ridan to'g'ri jazo chorasini nazarda tutilmagan bo'lsa, ayblanuvchiga sud ixtiyoriga ko'ra jazo tayinlanadi. Mazkur vaziyatda sud amal qilishi lozim bo'lgan yagona qoida, ishtirokchiga nisbatan tayinlanayotgan jazo asosiy jinoyat, ya'ni ayblanuvchi ishtirokchisiga aylangan jinoyat uchun belgilangan jazo miqdoridan ortiq bo'lishi mumkin emas.

O'z navbatida, Jinoyat-protsessual qonunning 276-moddasida jinoiy jazolar tizimi aks etgan.

6. Jinoyat-protsessual qonunning 283-moddasi jazo tayinlashda sud ixtiyori (discretion of court as to punishment) borasida so'z yuritib, yengilroq jazo tayinlash tartibini belgilaydi. Xususan, umrbod yoki ma'lum bir muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga loyiq bo'lgan shaxsga har qanday qisqaroq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo hamda har qanday miqdordagi jarima jazosiga loyiq bo'lgan shaxsga nisbatan har qanday kamroq miqdordagi jarima tariqasidagi jazo tayinlanishi mumkin. Mazkur qoida istisno tariqasida tegishli jinoyat tarkibi va uning uchun bel-

gilangan eng kam jazo yoki jarima miqdorini mustahkamlab qo'ygan holatlarga nisbatan qo'llanmaydi. Bundan tashqari, sud tomonidan hech kim to'rt kundan kam bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilinishi mumkin emas (284-modda).

7. Har qanday qonun hujjatida jazoning eng kam miqdori belgilab qo'yilgan jinoyatlarni istisno etgan holda, jinoyat sodir etganligi uchun hukm chiqarayotgan sud har qanday boshqa turdagi jazo chorasining o'rniga, ozodlikdan mahrum qilishga taalluqli bo'lgan qonunlarga muvofiq ravishda, yuz soatdan kam bo'lmagan hamda ikki ming soatdan ortiq bo'lmagan muddatga davriy ozodlikdan mahrum qilish (periodical imprisonment) tariqasidagi jazoni tayinlashga haqli (258(1)-modda).

To'qqizinchidan, "Xalqaro jinoyat sudi to'g'risidagi Rim statutini tatbiq etish to'g'risida"gi Qonunda ham jazoni yengillashtirishga doir quyidagi bir qator masalalar o'z ifodasini topgan:

1. Xavfsizlik xizmati yoki qurolli kuchlarning xodimi bo'la turib, hukumat yoki yuqori turuvchi rahbarning qonunga xilofligi oldindan ayon bo'lgan buyrug'ini bajarishga doir yuridik majburiyatga ega bo'lganlik – jinoyatga nisbatan zaruriy mudofaa sanalmaydi hamda shaxsning jinoyat uchun mahkum qilinganidan keyin hukmni har qanday yengillashtirish uchun asos ham bo'lmaydi (4-moddada ikkinchi qismi "b" bandi).

2. Mazkur statut mansab holatiga ko'ra biron-bir cheklovlarsiz barcha shaxslarga teng ravishda qo'llanadi. Xususan, davlat yoki hukumat rahbari, hukumat yoxud parlament a'zosi, saylangan vakillik yoki hukumat mansabdor shaxsining rasmiy maqomi ushbu statut bo'yicha hech bir holatda shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etmaydi hamda o'z-o'zidan hukmni yengillashtirish uchun asos hisoblanmaydi (27-moddaning birinchi qismi).

3. Uning 81(c)-moddasiga ko'ra, jinoyat va hukm o'rtasida nomutanosiblik bo'lgan

taqdirda prokuror hamda mahkum sud hukumati ustidan shikoyat kiritishi mumkin. Bunda apellatsiya sudi tomonidan jazoni yengillashtirish uchun asos mavjud deb hisoblangan taqdirda esa mazkur sud prokuror va mahkumga ushbu qonunning 81-moddasi birinchi qismi "a" va "b" bandlarida qayd etilgan asoslar (protsessual xato, faktga doir xato, yuridik xato hamda sud muhokamasi va qarorining adolatligi hamda ishonchligiga ta'sir qiluvchi har qanday asos) ni taqdim etishni taklif qilishi hamda mazkur qonunning 83-moddasi (apellatsiya shikoyatini ko'rish) tartibida sud muhokamasi o'tkazish haqida qaror qabul qilishi mumkin bo'ladi.

4. Ushbu qonunning 110-moddasida sud tomonidan jazoni yengillashtirish masalasini ko'rib chiqishning quyidagi tartibi o'rnatilgan:

1) jazoni ijro etayotgan davlat mahkumni sud tomonidan tayinlangan jazo muddati tugagunga qadar ozod qilmasligi lozim;

2) sud yakka tartibda jazoni har qanday yengillashtirish huquqiga ega bo'lib, shaxsning tinglaganidan so'ng ushbu masala yuzasidan qaror qabul qiladi;

3) shaxs jazoning uchdan ikki qismini yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo'lsa, yigirma besh yil muddatini o'tab bo'lgan taqdirda hukmni yengillashtirish zarur yoki zarur emasligini aniqlash uchun sud hukmni qaytadan ko'rib chiqishi darkor. Ushbu paytga qadar hukm qayta ko'rib chiqilmaydi;

4) Hukmni yuqoridagi uchinchi band talablari asosida qayta ko'rib chiqish vaqtida quyidagi omillarning bir yoki bir nechta mavjudligi aniqlangan taqdirda sud jazo muddatini qisqartirishi mumkin:

a) shaxsning sud tergov va sud ta'qibini amalga oshirish faoliyatida sud bilan oldindan va doimiy ravishda hamkorlik qilishga tayyorligi;

b) sudning boshqa ishlar bo'yicha qarorlari ijrosini ta'minlash, xususan, jabrlanuvchilarning manfaatiga xizmat qilishi mumkin

bo'lgan jarima solish, musodara qilish yoki yetkazilgan zararni bartaraf etish to'g'risidagi qarorlarning undirish predmeti hisoblangan aktivlarni izlab topishda shaxsning ixtiyoriy yordam ko'rsatishi; yoki

v) Tartib-taomillar va isbotlash qoidalarida nazarda tutilganidek, jazoning yengillashtirilishini asoslash uchun yetarli bo'lgan holatlarning yaqqol va ahamiyatli tarzda o'zgartirilishini belgilovchi boshqa omillar.

5) yuqoridagi uchinchi band asosida dastlabki ko'rib chiqishni amalga oshirgan sud tomonidan jazoni yengillashtirishning maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda keyinchalik sud jazoni yengillashtirish masalasini Tartib-taomillar va isbotlash qoidalarida aks etgan vaqt oralig'idan so'ng hamda qayd etilgan qoidalarda ko'zda tutilgan mezonlarni qo'llagan holda ko'rib chiqadi.

Bu borada qayd etish joizki, Tartib-taomillar va isbotlash qoidalari (Rules of Procedure and Evidence) [47] Xalqaro jinoyat sudi to'g'risidagi Rim statutini amalda qo'llashning vositasi hisoblanadi hamda milliy sud jarayonlarining maqsadlari yo'lida biron-bir milliy sudning protsessual me'yorlari yoki biron-bir huquq tizimiga daxl qilmaydi.

Har qanday ayblov e'lon qilingan taqdirda ayblanuvchi yuqoridagi statut qoidalariga muvofiq, ochiq sud majlisi hamda xolis, adolatli sudlov o'tkazilishiga haqli sanaladi. Ushbu statutda nazarda tutilgan har qanday ma'lumotning oshkor etilishiga qo'shimcha ravishda prokurorning fikriga ko'ra, ayblanuvchining aybsizligini isbotlash yoki isbotlashga intilishga yoxud himoyachiga ayblovchining dalillari haqiqiylikiga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgani holda ayblanuvchining aybini yengillashtirishga qaratilgan dalillar prokuror tomonidan ayblanuvchining himoyachisiga oshkor qilinishi lozim (67-modda).

O'z navbatida, sud Tartib-taomillar va isbotlash qoidalariga muvofiq, jazo tayinlashda jinoyatning og'irligi va mahkumning shaxsiy holatlari singari omillarni inobatga oladi

(78-modda). O'z o'rnida Tartib-taomillar va isbotlash qoidalari matnida yengillashtiruvchi holatlarni inobatga olish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi (145-qoida).

O'ninchidan, olimlar o'rtasida ko'plab muhozaralarga sabab bo'lishda davom etayotgan [48; 49; 50, 409-b; 51; 52] va "Minimal jazo to'g'risida"gi Qonun (The Minimum Sentence Act) deb atalib, 1998-yil 1-may sanasidan amalga kiritilgan hamda 1997-yilda qabul qilingan 105-sonli "Jinoyat qonunchiligiga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi Qonunning 51-moddasida mustahkamlangan qoidalar [53] alohida e'tiborga loyiq deb hisoblaymiz. Shu o'rinda qayd etish lozimki, "Majburiy minimal jazo (hukm)" (mandatory minimum sentencing) instituti JARdan tashqari AQSh, Kanada, Angliya, Uels, Shotlandiya, Irlandiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Hindiston singari mamlakatlarda keng tarqalgan bo'lib, ularning ko'pchiligidagi odil sudlov tizimida jazolarning eng kam muddatlari belgilab qo'yilgan.

Demak, JARning "Minimal jazo to'g'risida"gi Qonuni ayrim og'ir jinoyatlar uchun sud ixtiyoriga ko'ra tayinlanadigan jazo choralarining eng kam muddatini belgilab beradi. Masalan, 51-moddaning birinchi qismiga ko'ra, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimini o'ldirish, jabrlanuvchini jinoyat ishtirokchilari tomonidan bir necha marta nomusga tegish jinoyatlarini sodir qilganlik uchun, har qanday qonundan qat'i nazar, biroq ushbu moddaning uchinchi va oltinchi bandlarini inobatga olgan holda, sud tomonidan umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanishi zarur.

Yuqoridagi 51-moddaning uchinchi qismiga ko'ra, sud tomonidan mazkur moddada qayd etilgan hukmlarga nisbatan belgilangan eng kam jazo muddatidan ham kamroq jazo tayinlash uchun asos bo'luvchi "muhim va ishonchli holatlar" (substantial and compelling circumstances) mavjudligiga ishonch hosil qilgan taqdirda sud mazkur holatlarni bayonnomaga kiritishi va so'ngra yengilroq

jazo tayinlashi lozim. E'tiborlisi, nomusga tegish jinoyati uchun jazo tayinlashda "muhim va ishonchli holatlar" sifatida hisobga olinishi mumkin bo'lmagan holatlar ro'yxati (shikoyatchining avvalgi jinsiy tarixi; shikoyatchida jismoniy jarohatlarning ochiqdan ochiq mavjud emasligi; ayblanuvchining nomusga tegish yuzasidan madaniy yoki diniy e'tiqodlari; jinoyat sodir etilishidan avval ayblanuvchi va shikoyatchi o'rtasida mavjud bo'lgan har qanday munosabatlar) aniq belgilab qo'yilgan.

O'n birinchidan, sud amaliyotining dalolat berishicha, voyaga yetmaganlarga nisbatan nomusga tegish jinoyati sodir etilgan taqdirda voyaga yetgan ayblanuvchi tomonidan zo'rlik yoki majburlash qo'llanmaganligi, shuningdek, jabrlanuvchi tomonidan jinsiy aloqa qilishga doir bildirilgan rozilik jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida tan olinmaydi [54, 10 va 13-b.].

Shuningdek, shaxsning ixtiyoriy mastligi oqibatida jinoyat sodir etilganda, jinoyat sodir etish yuzasidan qasd mavjud bo'lmaganligi sababli ayrim hollarda yengillashtiruvchi holat sifatida hisobga olinishi, biroq jinoyat sodir qilish maqsadida mast qiluvchi ichimlik yoki moddalarni iste'mol qilish esa, aksincha, og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanishi mumkin [55].

O'z navbatida, jinoyatchining yoshi, vijdon azobi, avval sudlanmaganligi [50, 409-b.] ham yengillashtiruvchi holat deb topilishi mumkin. Hattoki birinchi instansiya sudi jinoyat sodir etgan paytda yigirma yetti yoshda bo'lgan jinoyatchiga jazo tayinlashda aynan yoshini yengillashtiruvchi holat sifatida hukmda aks ettirgan [56, 153-b.]. Jamoatchilikning keng tanqidiga uchragan ishlardan biri sifatida otaning o'z qiziga nisbatan nomusga tegish jinoyatini sodir etganligi hamda mazkur jinoyat, umuman olganda, jamiyat uchun xavf tug'dirmaganligi sababli jinoyatchiga umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llamaslik to'g'risidagi sud qaroriga asos bo'lgan yengillashtiruvchi holat-

lardan biri sifatida tan olinganligini keltirish mumkin [57, 34-b.].

O'n ikkinchidan, sud amaliyoti tahlil qilingan adabiyotlarda qarilik (advanced age) jazo tayinlashda ahamiyat kasb etsa-da, biroq jazoning miqdorini belgilovchi holat bo'lmasligi lozim [58, 274-b.], degan nuqtayi nazar ustuvorligini ko'rish mumkin.

O'n uchinchidan, shartli hukm qilish (probation) institutining amal qilish tartibi "Probatsiya xizmatlari to'g'risida"gi Qonun [17] bilan belgilanadi.

O'n to'rtinchidan, jazoni o'tashdan mud-datidan ilgari shartli ozod qilish institutini (parole) qo'llash tartibi 1998-yildagi "Axloq tuzatish muassasalari to'g'risida"gi Qonun [59] bilan belgilangani holda bu borada Mud-datidan ilgari shartli ozod qilish komissiyasi (Parole Board) faoliyat yuritadi [60].

O'n beshinchidan, 1996-yildagi Konstitutsiyaning 84(2)-moddasiga ko'ra, mamlakat prezidenti, shu jumladan, jinoyatchilarning afv etilishi, jazosining ijrosi kechiktirilishi, har qanday jarimalar, jazolar va mol-mulk musodarasidan ozod etilishi uchun mas'ul ekanligi belgilangan [61]. O'z navbatida, 1977-yildagi Jinoyat-protsessual qonunning 325- va 327-moddalariga binoan, prezidentning afv etish vakolatini amalga oshirish tartibi mustahkamlangan [19]. Mazkur vakolatdan ham alohida shaxsni, ham bir guruh shaxslarni afv etish uchun foydalanilishi mumkin [62, 127-b.].

O'n oltinchidan, Konstitutsiyaning 22(1)-moddasi hamda 1995-yildagi "Milliy birdamlik va yarashuvga ko'maklashish to'g'risida"gi Qonunning 17(2) va 20-moddalariga muvofiq [63], raisi prezident tomonidan lavozimga tayinlanadigan Amnistiya qo'mitasi amnistiya institutini qo'llashga vakolatli hisoblanadi.

### Xulosalar

Qayd etilganlardan kelib chiqib, JAR JKning quyidagi me'yorlarini O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga tatbiq etilishi fikrimizcha, milliy jinoyat qonunining

takomillashuvi hamda zamonaviylashuviga sabab bo'ladi:

I. JAR "Jinoyat qonuni (jinsiy jinoyatlar va bunga aloqador masalalar) ga o'zgartish kiritish to'g'risida"gi Qonunining 55-moddasiga ko'ra, voyaga yetmaganlarga qarshi jinsiy jinoyatni sodir etishga suiqasd qilganlik tamom bo'lgan jinoyat deb topilib, tegishli-chamam bo'lgan jinoyat uchun belgilangan jazo tayinlanadi, ya'ni mazkur holatda tamom bo'lmagan jinoyat uchun jazoni yengillash-tirish tartibi istisno qilinadi. Ushbu qoidani O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 58-moddasi ikkinchi qismi "b" bandi uchinchixatboshisiga kiritgan holda ushbu xatboshini quyidagi yangi tahrirda bayon qilishni taklif qilamiz. Shuningdek, JAR "Korrupsiyaviy faoliyatning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 21-moddasiga muvofiq, korrupsiyaga oid jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik ham tamom bo'lgan jinoyat deb topilib, mazkur qoidani O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 58-moddasi ikkinchi qismi "b" bandiga yangi to'rtinchi xatboshi sifatida kiritib, amaldagi to'rtinchi xatboshini tegishli beshinchi xatboshi sifatida quyidagicha bayon qilish taklif etiladi:

*58-modda. Tamom bo'lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash*

*(1-q.) Sud tamom bo'lmagan jinoyat uchun jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslariga amal qilgan holda jinoyatning og'ir-yengilligini, jinoiy niyat amalga oshirishining darajasini va jinoyatni oxiriga yetkazolmaganlik sabablarini ham hisobga oladi.*

*(2-q.) Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazo muddati yoki miqdori ushbu kodeks maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rtidan uch qismidan oshmasligi kerak. Mazkur qoida:*

*a) o'ta xavfli retsidivistlarga, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a'zolariga nisbatan;*

b) tinchlik va xavfsizlikka qarshi tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun, shuningdek, quyidagilar bilan:

javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish bilan;

o'n to'rt yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish; o'n olti yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish; o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxsning o'n sakkiz yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgani holda moddiy qimmatliklar berish yoxud mulkiy manfaatdor etish orqali u bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish; shaxsning o'n olti yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan holda unga nisbatan zo'rlik ishlatmay uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etish bilan;

ushbu kodeks maxsus qismida aks etgan korrupsiyaga oid quyidagi jinoyatlar sodir etilgan taqdirda: 167-moddasi uchinchi qismi "d" bandi (mansab mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zlashtirish yoki rastrata); 168-moddasi to'rtinchi qismi "g" bandi (xizmat mavqeyidan foydalanib firibgarlik sodir etish); 192-9-moddasi (tijoratda pora evaziga og'dirib olish); 192-10-moddasi (NNT yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish); 192-11-moddasi ikkinchi qismining "v" bandi (NNT yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini g'arazgo'ylik niyatida suiiste'mol qilish); 205-moddasi ikkinchi qismining "v" bandi (g'arazgo'ylik niyatida sodir etilgan hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish); 206-moddasi ikkinchi qismining "v" bandi (g'arazgo'ylik niyatida sodir etilgan hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish); 208-moddasining ikkinchi qismi (g'arazgo'ylik niyatida sodir etilgan hokimiyat harakatsizligi); 209-moddasi ikkinchi qismining "v" bandi (g'arazgo'ylik ni-

yatida sodir etilgan mansab soxtakorligi); 210-moddasi (pora olish); 211-moddasi (pora berish); 212-moddasi (pora olish-berishda vositachilik qilish); 213-moddasi (davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish); 214-moddasi (davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi); 301-moddasi ikkinchi qismining "b" bandi (og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan holda hokimiyatni suiiste'mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi); 243-moddasi (jinoiy faoliyatlardan olingan daromadlarni legallashtirish), agar jinoyat korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etish natijasida olingan daromadlarga nisbatan sodir etilgan bo'lsa;

yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurolini, bunday qurol yaratishda foydalanish mumkinligi ayon bo'lgan materiallarni hamda uskunalarni, radioaktiv materiallarni kontrabanda qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar uchun jazolar tayinlashda qo'llanmaydi.

(3-q.) Tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanishi mumkin emas.

(4-q.) Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlashda sud har qaysi aybdorning jinoyatda ishtirok etganlik xususiyati va darajasini hisobga oladi. Har qaysi ishtirokchining shaxsiga tegishli bo'lgan yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar sud tomonidan faqat shu ishtirokchining o'ziga jazo tayinlashda hisobga olinadi.

II. JAR jinoyat huquqining asosiy manbalaridan biri bo'lmish Jinoyat-protsessual qonunining 57-57A moddalariga muvofiq, jarimaning to'lovi sudgacha yoki sud jaryonida amalga oshirilishi lozimligi belgilangan. Mazkur qoidani O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 55-moddasi birinchi qismi

“b” bandiga kiritish hamda ushbu bandni yanada aniqroq quyidagi tahrirda bayon qilish taklif etiladi:

*55-modda. Jazoni yengillashtiruvchi holatlar*

*(1-q.) Quyidagi holatlar jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb topiladi:*

*a) aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish;*

*b) yetkazilgan zararni sud jarayoni boshlangunga qadar yoki sud jarayoni davomida hukm chiqarilgunga qadar ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish;*

*v) og'ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish;*

*g) majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish;*

*d) jabrlanuvchining zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etish;*

*e) zaruriy mudofaaning, oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda, kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish;*

*j) voyaga yetmaganning jinoyat sodir etishi;*

*z) homilador ayolning jinoyat sodir etishi;*

*i) jabrlanuvchining g'ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta'siri ostida jinoyat sodir etish.*

*(2-q.) Jazo tayinlashda sud ushbu modda nazarda tutilmagan boshqa holatlarni ham yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin.*

*(3-q.) Yengillashtiruvchi holat ushbu kodeks maxsus qismining moddasida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida nazarda tutilgan bo'lsa, jazo tayinlashda hisobga olinmaydi.*

III. JAR Jinoyat-protsessual qonuni 257-moddasida ifodalangan “faktdan keyingi

ishtirokchilik” instituti va buning uchun jazo tayinlash masalasini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 30-moddasiga quyidagi tahrirdagi yangi oltinchi qism sifatida kiritish taklif etiladi:

*30-modda. Jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlik doirasi*

*(1-q.) Tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham ushbu kodeks maxsus qismining bajaruvchini javobgarlikka tortish belgilangan moddasi bo'yicha javobgarlikka tortiladilar.*

*(2-q.) Oldindan til biriktirgan guruh, jinoiy guruh va jinoiy uyushmaning tashkilotchilari hamda a'zolari tayyorgarlik ko'rilishi yoki sodir etilishida o'zlari qatnashgan barcha jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar.*

*(3-q.) Uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etgan yoki ularga rahbarlik qilgan shaxslar shu guruh yoki uyushma sodir etgan barcha jinoyatlar uchun, basharti bu jinoyatlar ularning jinoiy niyati bilan qamrab olingan bo'lsa, javobgarlikka tortiladilar.*

*(4-q.) Boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan qilmish uchun uni sodir etgan shaxs javobgar bo'ladi.*

*(5-q.) Tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi jinoyatdan ixtiyoriy ravishda qaytib, jinoyatning oldini olish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan barcha choralarni o'z vaqtida ko'rganligi, jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlikni istisno qiladi.*

*(6-q.) Jinoyat protsessidagi dalillar yordamida aybdorning jinoyat sodir etilganidan so'ng ishtirokchiga aylanganligi isbotlangan taqdirda agarda bunday qilmish uchun ushbu kodeksda to'g'ridan to'g'ri jazo chorasi nazarda tutilmagan bo'lsa, ayblanuvchiga sud ixtiyoriga ko'ra jazo tayinlanadi. Mazkur ishtirokchiga nisbatan tayinlanayotgan jazo chorasi asosiy jinoyat, ya'ni ayblanuvchi ishtirokchisiga aylangan jinoyat uchun ushbu kodeks maxsus qismining tegishli moddasida belgilangan jazo miqdori yoki muddatidan ortiq bo'lishi mumkin emas.*

## REFERENCES

1. Nagornaya I.I. Moral'naya uprechnost' i ugovovno-pravovaya vina (na primere doktriny smyagchayushhikh obsoyatel'stv v stranakh Afriki) [Moral Reproach and Criminal Law Guilt: on the Example of the Doctrine of Mitigating Factors in African Countries]. *Pravo. Zhurnal Vyshey shkoly ekonomiki – Right. Journal of the Higher School of Economics*, 2016, no. 2, pp. 223–234. DOI: 10.17323/2072-8166.2016.2.223.234/
2. National Environmental Management Act No. 107, 1998 (Republic of South Africa). Available at: [https://www.gov.za/sites/default/files/gcis\\_document/201409/a107-98.pdf](https://www.gov.za/sites/default/files/gcis_document/201409/a107-98.pdf) (accessed 01.04.2023).
3. Criminal Law (Sexual Offences and Related Matters). Amendment Act No. 32, 2007 (Republic of South Africa). Available at: [https://www.gov.za/sites/default/files/gcis\\_document/201409/a32-070.pdf](https://www.gov.za/sites/default/files/gcis_document/201409/a32-070.pdf) (accessed 01.04.2023).
4. Companies Act No. 71, 2008 (Republic of South Africa). Available at: [https://www.gov.za/sites/default/files/gcis\\_document/201409/321214210.pdf](https://www.gov.za/sites/default/files/gcis_document/201409/321214210.pdf) (accessed 01.04.2023).
5. Insurance Act No. 18, 2017 (Republic of South Africa). Available at: [https://www.gov.za/sites/default/files/gcis\\_document/201801/41388gon32insuranceact2017.pdf](https://www.gov.za/sites/default/files/gcis_document/201801/41388gon32insuranceact2017.pdf) (accessed 01.04.2023).
6. Financial Sector Regulation Act No. 9 of 2017 (Republic of South Africa). Available at: [https://www.gov.za/sites/default/files/gcis\\_document/201708/4106022-8act9of2017finansectorregulationa.pdf](https://www.gov.za/sites/default/files/gcis_document/201708/4106022-8act9of2017finansectorregulationa.pdf) (accessed 01.04.2023).
7. Tax Administration Act No. 28 of 2011 (Republic of South Africa). Available: [https://www.gov.za/sites/default/files/gcis\\_document/201409/a282011.pdf](https://www.gov.za/sites/default/files/gcis_document/201409/a282011.pdf) (accessed 01.04.2023).
8. Prevention and Combating of Trafficking in Persons Act No. 7 of 2013 (Republic of South Africa). Available at: [https://www.gov.za/sites/default/files/gcis\\_document/201409/36715gon544.pdf](https://www.gov.za/sites/default/files/gcis_document/201409/36715gon544.pdf) (accessed 01.04.2023).
9. Prevention of Organised Crime Act No. 121 of 1998 (Republic of South Africa). URL: [https://www.gov.za/sites/default/files/gcis\\_document/201409/a121-98.pdf](https://www.gov.za/sites/default/files/gcis_document/201409/a121-98.pdf) (accessed 01.04.2023).
10. Financial Intelligence Centre Act No. 38 of 2001 (Republic of South Africa). Available: [https://www.gov.za/sites/default/files/gcis\\_document/201409/a38-010.pdf](https://www.gov.za/sites/default/files/gcis_document/201409/a38-010.pdf) (accessed 01.04.2023).
11. Promotion of equality and prevention of unfair discrimination Act No. 4 of 2000 (Republic of South Africa). Available at: <https://www.justice.gov.za/legislation/acts/2000-004.pdf> (accessed 01.04.2023).
12. Prevention and Combating of Corrupt Activities Act No. 12 of 2004 (Republic of South Africa). Available at: [https://www.saps.gov.za/dpci/downloads/prevention\\_combating\\_corrupt\\_activities\\_act.pdf](https://www.saps.gov.za/dpci/downloads/prevention_combating_corrupt_activities_act.pdf) (accessed 01.04.2023).
13. Decriminalization Act No. 107 of 1991 (Republic of South Africa). Available at: [https://www.gov.za/sites/default/files/gcis\\_document/201409/a1071991.pdf](https://www.gov.za/sites/default/files/gcis_document/201409/a1071991.pdf) (accessed 01.04.2023).
14. Drugs and Drug Trafficking Act No. 140 of 1992 (Republic of South Africa). Available at: [https://www.gov.za/sites/default/files/gcis\\_document/201409/a1401992.pdf](https://www.gov.za/sites/default/files/gcis_document/201409/a1401992.pdf) (accessed 01.04.2023).
15. Prevention of Public Violence and Intimidation Act No. 139 of 1991 (Republic of South Africa). Available at: [https://www.gov.za/sites/default/files/gcis\\_document/201505/act-139-1991.pdf](https://www.gov.za/sites/default/files/gcis_document/201505/act-139-1991.pdf) (accessed 01.04.2023).
16. Protection of Constitutional Democracy Against Terrorist and Related Activities Act No. 33 of 2004 (Republic of South Africa). Available at: [https://www.saps.gov.za/resource\\_centre/acts/downloads/juta/terrorism\\_act.pdf](https://www.saps.gov.za/resource_centre/acts/downloads/juta/terrorism_act.pdf) (accessed 01.04.2023).
17. Probation Services Act No. 116 of 1991 (Republic of South Africa). Available at: [https://www.gov.za/sites/default/files/gcis\\_document/201505/act-116-1991.pdf](https://www.gov.za/sites/default/files/gcis_document/201505/act-116-1991.pdf) (accessed 01.04.2023).
18. Child Justice Act No. 75 of 2008 (Republic of South Africa). Available at: [https://www.gov.za/sites/default/files/gcis\\_document/201409/32225549.pdf](https://www.gov.za/sites/default/files/gcis_document/201409/32225549.pdf) (accessed 01.04.2023).

19. Criminal Procedure Act No. 51 of 1977 (Republic of South Africa). Available at: <https://www.justice.gov.za/legislation/acts/1977-051.pdf/> (accessed 01.04.2023).
20. Implementation of the Rome Statute of the International Criminal Court Act 27 of 2002 (Republic of South Africa). Available at: <https://www.justice.gov.za/legislation/acts/2002-027.pdf/> (accessed 01.04.2023).
21. Magistrates' Courts Act No.32 of 1944 (Republic of South Africa). Available at: <https://www.justice.gov.za/legislation/acts/1944-032.pdf/> (accessed 01.04.2023).
22. Supreme Court Act No. 59 of 1959 (Republic of South Africa). Available at: <https://www.justice.gov.za/legislation/acts/1959-059.pdf/> (accessed 01.04.2023).
23. Rustambaev M.Kh. Kurs ugolovnogo prava Respubliki Uzbekistan [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. A General Part. Vol. 2. The Doctrine of Punishment. Tashkent, Military Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, 375 p.
24. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jazo tayinlashda yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olish [Taking into account of mitigating factors in sentencing]. Tashkent, Adolat Publ., 2007, p. 58.
25. Tozhiev E.A. Ponyatiye i ugolovno-pravovoye znachenie obstoyatel'stv, smyagchayushchikh nakazaniye [The concept and criminal law meaning of mitigating factors]. Nukus, Bilim Publ., 2000, 68 p.
26. Nazarov M.A. Naznachenie nakazaniya v ugolovnom prave Respubliki Uzbekistan [Sentencing in the criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2020, 51 p.
27. Promotion of National Unity and Reconciliation Act 34 of 1995 (Republic of South Africa). Available at: <https://www.justice.gov.za/legislation/acts/1995-034.pdf/> (accessed 01.04.2023)
28. Otajonov A.A. Kushbakov D.M. Mastlik holatida jinoyat sodir etgan shaxsning jinoiy javobgarligi va unga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralarini takomillashtirish [Improving the criminal liability of the person who committed the offence while intoxicated and the criminal-legal measures to combat it]. *Yurist axborotnomasi – Lawyer Herald*, 2021, no. 1, pp. 151–165.
29. Kamalova D.G. Jinoyat huquqida rag'batlantiruvchi normalar va ularning jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishdan farqli jihatlari [Motivational norms in criminal law and how they differ from voluntary abandonment]. *Yurisprudensiya – Jurisprudence*, vol. 1, no. 1, pp. 5–10.
30. Mavlonov T.A. Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash tushunchasi va tarixi [The concept and history of compensation for property damage caused by offence]. *Yurist axborotnomasi – Lawyer Herald*, 2022, no. 1, pp. 70–77.
31. Gofurov Sh. G'araz maqsadda voyaga yetmaganlar tomonidan tamom bo'lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash xususiyatlari [Features of sentencing for inchoate offences and complicity committed by minors with self-interest purpose]. *Society and innovations*, iss. 2, pp. 144–150.
32. Turgunboyev E. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning huquqiy tabiati [Legal nature of parole]. *Journal of Law Research*, 2021, vol. 6, iss. 11, pp. 71–78.
33. Hakimov K. Affekt (kuchli ruhiy hayajonlanish holati) javobgarlik va jazoni yengillashtiruvchi holat sifatidagi yuridik konstruksiyasining o'ziga xosligi [The uniqueness of the legal construction of affect (a state of strong mental excitement) as a factor mitigating of responsibility and punishment]. *Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Legal Sciences*, 2018, no. 4, pp. 100–104.
34. Kurbanova A.A. Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvning tushunchasi [The concept of a plea bargain]. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2022, March, vol. 2, iss. 3, pp. 119–125.
35. Mukimova M.Z., Shermatova G. Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari [The concept of plea agreement, its features]. *Academic Research in Educational Sciences*, 2021, vol. 2, iss. 12, pp.1428–1433.
36. Nodirov M. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat ishlari bo'yicha huquqni tiklovchi odil sudlovni amalga oshirishning joriy holati: milliy va xorijiy amaliyot tahlili [The current situation of restorative justice in juvenile delinquency cases: an analysis of national and foreign practices]. *Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Legal Sciences*, 2017, no. 2, pp. 126–129.

37. Turabayeva Z. Pandemiya davrida voyaga yetmagan shaxslarga jazo tayinlashning o'ziga xos xususiyatlari [Features of sentencing minors during the pandemic]. *Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Legal Sciences*, 2020, pp. 242–245.
38. Ochilov S. Pandemiya sharoitida jinoiy jazodan ozod qilishni takomillashtirish masalalari [Issues of improving for releasing from criminal punishment in the context of the pandemic]. *Society and innovations*, 2021, spec. iss. 4, pp. 187–196.
39. Mamajonov A. Ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan tayinlanadigan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari yuzasidan ayrim mulohazalar [Some comments on coercive measures of medical nature assigned to mentally disturbed persons]. *Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Legal Sciences*, pp. 128–135.
40. Zakirova U. O'ch olish motivi bilan sodir etiladigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning ayrim masalalari [Some issues of qualification of offences committed with the motive of revenge]. *Bulletin of the Academy of the General Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan*, 2018, no. 4 (36), pp. 66–70.
41. Zakirova U. Jinoyat motivi va maqsadining qilmishni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati [The role of the motive and purpose of the offence in the qualification of the act]. *Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Legal Sciences*, 2018, no. 2, pp. 117–121.
42. Shamsiddinov Z. Ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligida jinoyat qonunining vaqt bo'yicha amal qilishi masalalari: qiyosiy tahlil [Issues of the action in time of the criminal law in the legislation of some foreign countries: a comparative analysis]. *Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Legal Sciences*, pp. 233–239.
43. Sharipova D. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqida yengilroq jazo tayinlashning ayrim jihatlarlari [Some aspects of imposing a lighter sentence in the criminal law of the Republic of Uzbekistan]. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2023, no. 3 (1), pp. 10–13.
44. Aliyev K. Jinoiy jazo tayinlashning dolzarb muammolari [Actual problems of criminal punishment]. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2023, vol. 3 (5), pp. 47–51.
45. Jusupdzhanova G. Institut probacii – opyt zarubezhnyh stran [Probation Institute - the experience of foreign countries]. *Society and innovations*, 2022, no. 3, spes. iss. 5/S, pp. 158–162.
46. Joubert M., van Wyk C. Social Work Forensic Reports in South African Criminal Courts: Inevitability in the Quest for Justice. *Social Work/Maatskaplike Werk*, 2014, vol. 50, no. 4, pp. 485–503. DOI: 10.15270/50-4-387/
47. Pravila procedury i dokazyvaniya [Draft text of the Rules of Procedure and Evidence]. Available at: [https://www.un.org/ru/documents/rules/icc\\_rules.pdf/](https://www.un.org/ru/documents/rules/icc_rules.pdf/) (accessed 01.04.2023).
48. Roth S.M. South African Mandatory Minimum Sentencing: Reform Required. *Minnesota Journal of International Law*, 2008, vol. 17:1, pp. 155–182.
49. Sloth-Nielsen J., Ehlers L. Assessing the Impact: Mandatory and minimum sentences in South Africa. *South African Crime Quarterly*, 2005, December, no. 14, pp. 15–22. DOI: 10.17159/2413-3108/2005/v0i14a1005/
50. Terblanche S., Mackenzie G. Mandatory Sentences in South Africa: Lessons for Australia? *The Australian and New Zealand Journal of Criminology*, 2008, vol. 41, no. 3, pp. 402–420. DOI: 10.1375/acri.41.3.3402/
51. Elton A., Anderson J., Jose J., Maguire A. Mandatory Practices and the Transformation of Due Process. *Monash University Law Review*, vol. 44, no. 3, pp. 621–657.
52. Sloth-Nielsen J., Ehlers L. A Pyrrhic victory? Mandatory and minimum sentences in South Africa. Mandatory and minimum sentences. Institute for Security Studies, 2005, Paper 111, 20 p.
53. Criminal Law Amendment Act No. 105, 1997 (Republic of South Africa). Available at: <https://www.justice.gov.za/legislation/acts/1997-105.pdf/> (accessed 01.04.2023).
54. Republic of South Africa in the High Court of South Africa (Gauteng Division, Pretoria). Case No: a488/2014, 2015, April 21. Judgment by Khumalo J. 14 p.
55. Ndhlovu M. The Law on Intoxication in South Africa. Published on May 2016. Available at: <https://www.researchgate.net/publication/303523475/> (accessed 01.04.2023).

56. Burchell J., Phelps K., Smythe D. Jurisdiction Spotlight. *South Africa Journal of Commonwealth Criminal Law*, 2012, pp.125–156.
57. South African Law Commission. Report. Project 82. Sentencing (a new sentencing framework), 2000, November, 165 p.
58. Carnelley M., Hoorhorst Sh. Advanced Age as a Mitigating Factor. *OBITER – Nelson Mandela University Law Journal*, 2008, vol. 29, no. 2, pp. 268–274.
59. Correctional Services Act No.111, 1998 (Republic of South Africa). Available at: [https://www.gov.za/sites/default/files/gcis\\_document/201409/a111-98.pdf/](https://www.gov.za/sites/default/files/gcis_document/201409/a111-98.pdf/) (accessed 01.04.2023).
60. Jamil D. Mujuzi. Unpacking the Law and Practice Relating to Parole in South Africa. *Potchefstroom Electronic Law Journal*, 2011, January, vol. 14, no. 5, pp. 205–228.
61. Constitution of the Republic of South Africa, 1996. Available at: <https://www.justice.gov.za/legislation/constitution/saconstitution-web-eng.pdf/> (accessed 01.04.2023).
62. Udofa I. The Abuse of Presidential Power of Pardon and the Need for Restraints. *Beijing Law Review*, 2018, vol. 9, no. 2, pp. 113–131.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2023-yil 2-son**

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

**BOSH MUHARRIR:**

**Rustambekov Islambek Rustambekovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,  
professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,  
dotsent

**Mas'ul muharrir:** O. Choriyev

**Muharrirlar:** Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,  
Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

**Musahhih:** M. Patillayeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.  
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** review.tsul.uz

**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1385.

Jurnal 26.06.2023-yilda tipografiyaga  
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.  
Shartli 17,7 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 36.  
TDYU tipografiyasida chop etildi.